

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING
JIZZAX FILIALI**



**RAQAMLI JAMIYATDA FAN VA TA’LIMNING INTEGRATSIYALALASHUVI:
MATEMATIKA, IQTISOD, PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYANING YANGI
YONDASHUVLARI**
mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami
(2026-yil 20-21-aprel)

JIZZAX-2026

Raqamli jamiyatda fan va ta’limning integratsiyalalashuvi: matematika, iqtisod, pedagogika va psixologiyaning yangi yondashuvlari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to’plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Amaliy matematika kafedrası, 2026-yil 20-21-aprel 505-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to’plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo’nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Tovboyev, t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O’ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo’rayev M.M.

Mazkur to’plamga kiritilgan ma’ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to’g’riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

12. Xolmatov D. Biznesni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Tafakkur, 2020.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ELEKTRON TIJORATNI AMALGA OSHIRISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI ISHTIROKINI OSHIRISH YO‘NALISHLARI

Xujamkulov Dilmurod Yusupaliyevich

Oriental universiteti professori, i.f.n.

tel.: +998909984298, khojamqulovdyu@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli transformatsiya jarayonlarining kichik tadbirkorlik sub’ektlariga ta’siri va ularning elektron tijoratdagi ishtirokini kengaytirish yo‘llari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida kichik biznes uchun elektron savdo platformalariga integratsiyalashuvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va modellari yoritilgan, huquqiy asoslari tahlil qilinib, sohani takomillashtirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik tadbirkorlik, raqamli iqtisodiyot, elektron tijorat, Marketpleys, raqamli ekotizim, logistika, savdo platformalari, sun’iy intellekt

Kirish

Bugungi tezkor o‘zgarishlar va global nobarqarorlik sharoitida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi uzq muddatli ishonchli strategik hamkorlikni amalga oshirish nozik va qaltis masala bo‘lib qolmoqda. Bunday sharoitda davlatlar o‘rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni, nafaqat, rivojlantirish, balki, o‘z darajasida saqlab qolish ham ko‘plab risk va noaniqliklar sabab jiddiy xavf ostida qolmoqda.

Mazkur vaziyatda mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish omillari zaiflashtirmaslik yo‘lida yangi va zamonaviy imkoniyatlarni izlash va ularni samarali qo‘llash hoyatda ahamiyatlidir. Elektron tijorat faoliyati aynan mana bu masalada bir qator milliy va global muammolarni bartaraf etishga qodir tizim sifatida xalqaro maydonda tobora o‘z salohiyatini oshkor etib bormoqda. Shunga ko‘ra, aytish mumkinki, bugungi kunda elektron tijorat (e-commerce) iqtisodiy o‘sinhning asosiy drayveriga aylandi. Kichik tadbirkorlik sub’ektlari uchun elektron tijorat, nafaqat, savdo kanali, qolaversa, yangi bozorlarga chiqish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatish vositasidir. Biroq, raqamli tengsizlik, moliyaviy resurslar yetishmovchiligi va kadrlar malakasi pastligi, qulay infratuzilmaning yaratilmaganligi, huquqiy asoslarning ishlab chiqilmaganligi, bozorlarning to‘la shakllanmaganligi kichik biznesning ushbu sohadagi faolligiga to‘sqinlik qilmoqda.

Tahlil va muhokamalar

Elektron tijorat bugungi ulkan imkoniyatlar davrida resurslardan optimal foydalangan holda yuqori va o‘sib boruvchi foya olish imkoniyatini beruvchi yangi savdo platformasi hisoblanadi. Uning yuzaga kelishi va rivojlanishi nazariyasi evolyusiyasini tadqiq etishda, kichik tadbirkorlik subyektlarining o‘rni bo‘yicha bir nechta ilmiy yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Xususan:

- Turban Ye. va boshqalar elektron tijoratni faqat onlayn oldi-sotdi emas, balki, tashkilotlararo biznes jarayonlarini raqamli boshqarish sifatida ham ta’riflaydi²²;

- Li X. kichik biznesning raqamli ekotizimlarga kirishini “Platform-based Entrepreneurship” konsepsiyasi doirasida tahlil qilgan²³.

²² Turban E., Whiteside J., King D., & Outland J. Electronic Commerce 2023: A Managerial and Social Networks Perspective. – Springer, 2023. – 850 p. (Google Scholar).

²³ Li X. Platform-based Entrepreneurship: A Digital Ecosystem Perspective // ResearchGate Articles. – 2024. – No. 12. – P. 45-60.

Jahon miqyosida kichik biznesning elektron tijoratdagi ishtiroki bo'yicha quyidagi tajribalar diqqatga sazovor:

- Chen Y., va Zhang J. maqolalarida Xitoyning “Taobao villages” modeli kichik ishlab chiqaruvchilarni global zanjirga bog'lashda eng muvaffaqiyatli keys sifatida e'tirof etilgan²⁴;

- Miller A. rivojlangan davlatlarda kichik biznesning “Direct-to-Consumer” (D2C) modeliga o'tishi va bunda ijtimoiy tarmoqlarning rolini yuqori baholagan²⁵.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, elektron tijorat o'ziga xos xususiyatlar va tavsifiy jihatlarga ega bo'lishi bilan birga uning kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilishidagi afzalliklari va kamchiliklari ham mavjudligini qayd etib o'tmoq lozim (1-jadval).

1-jadval.

Kichik biznes subyektlarining elektron tijoratni amalga oshirishdagi modellari²⁶

№	Model	Xususiyati	Afzalligi	Kamchiligi
1	Marketplace (Uzum, Amazon)	Tayyor platformadan foydalanish	Tez kirish, tayyor mijoz oqimi	Yuqori komissiya to'lovlari
2	SaaS (Shopify, Joom)	Shaxsiy onlayn do'kon yaratish	Brend ustidan to'liq nazorat	Texnik xizmat va marketing xarajati
3	Social Commerce	Ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo	Mijoz bilan yaqin muloqot	To'lov va logistika xavflari

Jadval ma'lumotlarida kichik biznes subyektlarining elektron tijoratni amalga oshirishdagi modellaridagi xususiyatlar va ularning farqli jihatlari keltirib o'tilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda elektron tijoratning jami savdo hajmidagi, YaIMdagi ulushini qoniqarli, deb bo'lmaydi. Bu sohada amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator dolzarb chora-tadbirlar mavjud. Lekin, elektron tijoratni rivojlantirish va unda kichik tadbirkorlik subyektlarining ishtirokini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi “Elektron tijorat to'g'risida”gi O'RQ-792-sonli Qonuni (7 ta bob, 33 ta modda), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi “O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-136-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 885-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 18-iyundagi “Elektron tijoratda kurerlik xizmati faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3631-sonli buyrug'i kabi huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan.

Mazkur qonunchilik tizimi asosida Yangi O'zbekistonning barcha hududlarida IT Parklarni tashkil etish va rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan tadbirkorlarni raqamli savodxonlikka o'qitish, Elektron to'lov tizimlarining (Click, Payme, Uzum Pay) tijorat banklari bilan integratsiyalashuvini jadallashtirish, Logistika markazlarining (Fullfillment centers) tashkil etilishini kengaytirish, tadbirkorlarning xorijiy

²⁴ Chen Y., & Zhang J. Digital Transformation of Rural SMEs: Lessons from China // Scopus Indexed Journal of Rural Studies. – 2025. – Vol. 42. – P. 112-128.

²⁵ Miller A. The Rise of D2C Model in Emerging Economies // Web of Science - Management Review. – 2024. – Issue 8. – P. 200-215.

²⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

bozorlarga faol chiqishini qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarda sezilarli rivojlanishlarga erishilmoqda.

O‘z navbatida, sohada hali o‘z yechimini topmagan yo‘nalishlarda tadqiqotlarni izchil davom ettirish, muammolarni amaliy o‘rganish hamda ularni bartaraf etishda mavjud imkoniyatlar va xorijiy tajribilarni chuqur tahlil qilish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning elektron tijoratdagi ishtiroki faqatgina texnik va moddiy vositalarga bog‘liq emas, balki, davlat, platforma operatorlari va tadbirkorlar o‘rtasidagi uyg‘un ekotizimga tayanadi. Xalqaro tajriba va O‘zbekiston islohotlari ko‘rsatmoqdaki, marketpleyslar orqali savdo qilish va SI texnologiyalaridan foydalanish kichik biznesning operatsion xarajatlarini 30% gacha kamaytirish imkonini beradi.

O‘z navbatida, kichik biznes subyektlarining elektron tijoratdagi ishtirokini yanada oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish tavsif etiladi:

1. Raqamli infratuzilmani soddalashtirish va uning kiberxavfsiz tizimini yaratish lozim. Bu kichik tadbirkorlik uchun “bir darcha” tamoyili asosida elektron do‘konlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va eksport amaliyotlarini raqamlashtirishda qulay muhitni ta’minlaydi.

2. SI va Big Data algoritmlarini joriy etish zarur. Kichik tadbirkorlar katta hajmdagi ma’lumotlarga ega bo‘lmasa-da, marketpleyslar taqdim etadigan analitik vositalardan foydalanib, talabni prognoz qilishlari mumkin. Bunda yuqorida tilga olingan Random Forest yoki LSTM modellari zahiralarni boshqarishda qo‘l keladi.

3. Fiskal rag‘batlantirish tizimini joriy etish lozim. Elektron tijorat sohasidagi yangi tadbirkorlik sub’ektlari uchun soliq imtiyozlarini uzaytirish va naqd pulsiz hisob-kitoblar uchun tranzaksiya xarajatlarini pasaytirish yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kichik tadbirkorlik subyektlarini elektron tijoratga jalb qilish mexanizmini takomillashtirish zarur. Bunda ularning raqamli ko‘nikmalarni shakllantirish, savdo platformalarini tanlash va SI-chatbotlarni o‘rnatish, imtiyozli kreditlar va grantlar olish hamda qulay logistika tizimini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

19. O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentabrdagi “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘RQ-792-sonli Qonuni.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-136-sonli Qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 885-sonli Qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktorining 2025-yil 18-iyundagi “Elektron tijoratda kurerlik xizmati faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 3631-sonli buyrug‘i

24. Li X. Platform-based Entrepreneurship: A Digital Ecosystem Perspective // ResearchGate Articles. – 2024. – No. 12. – P. 45-60.

25. Miller A. The Rise of D2C Model in Emerging Economies // Web of Science - Management Review. – 2024. – Issue 8. – P. 200-215.

26. Chen Y., & Zhang J. Digital Transformation of Rural SMEs: Lessons from China //

Scopus Indexed Journal of Rural Studies. – 2025. – Vol. 42. – P. 112-128.

27. Turban E., Whiteside J., King D., & Outland J. Electronic Commerce 2023: A Managerial and Social Networks Perspective. – Springer, 2023. – 850 p. (Google Scholar).

CHIQINDILARNI IQTISODIY RESURSGA AYLANTIRISH(WASTE’DAN VALUE’GA): INNOVATSIYALAR ORQALI ISHLAB CHIQARISHDA YANGI QIYMAT YARATISH

Shukurova Gulnoza Ixtiyor qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali magistranti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishlab chiqarish tizimlarida “Waste to Value” konsepsiyasini qo‘llash orqali chiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirish imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish jarayonlarida shakllanadigan chiqindi oqimlari tahlil qilinib, ularni qayta ishlash orqali qo‘shimcha qiymat yaratish mexanizmlari baholandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarni samarali boshqarish orqali xomashyo yo‘qotishlarini kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, aylanma iqtisodiyot, chiqindilarni boshqarish, resurs samaradorligi, barqaror rivojlanish

Kirish

Zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarida resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish masalasi global darajada dolzarb muammoga aylangan. World Bank ma’lumotlariga ko‘ra, global chiqindilar hajmi 2050 yilga borib 70% ga oshishi kutilmoqda.

Shu sababli ishlab chiqarishda chiqindilarni kamaytirish va ularni qayta ishlash orqali iqtisodiy qiymat yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. “Waste to Value” konsepsiyasi aynan shu yondashuvni ifodalaydi. Ushbu konsepsiya Ellen MacArthur Foundation tomonidan ilgari surilgan aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslanib, resurslarning qayta ishlanishi va ishlab chiqarish sikliga qayta kiritilishini ta’minlaydi.

Muammo qo‘yilishi

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ishlab chiqarish korxonalarida chiqindilarni boshqarish tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Ishlab chiqarish bosqichlarida hosil bo‘ladigan xomashyo qoldiqlari, nuqsonli mahsulotlar va qadoqlash chiqindilari ko‘pincha qayta ishlanmaydi.

Food and Agriculture Organization ma’lumotlariga ko‘ra, oziq-ovqat ishlab chiqarish tizimlarida mahsulotlarning taxminan 14% qismi iste’molchigacha yetib bormasdan yo‘qotiladi. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligining pastligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, chiqindilarni saralash infratuzilmasining yetishmasligi va innovatsion texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmaganligi muammoni yanada murakkablashtiradi. Natijada chiqindilar korxona uchun qo‘shimcha xarajat manbai sifatida qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqsad: Ishlab chiqarish jarayonlarida “Waste’dan Value’ga” yondashuvini qo‘llash orqali chiqindilarni iqtisodiy resursga aylantirish imkoniyatlarini baholash.

Vazifalar: “Waste to Value” konsepsiyasining nazariy asoslarini o‘rganish;

Ishlab chiqarishda shakllanadigan chiqindi oqimlarini aniqlash;

Chiqindilarni qayta ishlashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalarni tahlil qilish;

Ushbu yondashuvning iqtisodiy samaradorligini baholash.